

MOLIYAVIY XAVFSIZLIK VA UNING KORXONA BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Baymuxamedova Gulnoza

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

ORCID: 0009-0008-0345-0003

Email: gulnozabojmuhamedova@gmail.com

g.boymuhamedova@tkti.uz

Berdikulov Suhrob Berdiqulov o'g'li

Sanoat muhandisligi va menejmenti fakulteti

23-63 MT guruh talabasi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Email: suhrobberdiqulovich@gmail.com

Tel: +998938746104

ORCID:0009-0001-2281-3200

Annotatsiya: Ushbu maqola doirasida moliyaviy xavfsizlikning korxona barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillari o'rganildi. Uni o'rganish natijasida, korxona rahbarlariga moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan. Bu esa korxonaning iqtisodiy salohiyatini oshirish va uzoq muddatli muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy xavfsizlik, korxona barqarorligi, inflyatsiya, raqobat, ko'rsatkichlar, statistikalar, aktiv, passiv, foyda, zarar, daromad

ФИНАНСОВАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА СТАБИЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ

Баймухамедова Гулноза

Ташкентский химико-технологический институт

Бердикулов Сухроб Бердикулович

факультета промышленной инженерия и менеджмента

Студент группы 23-63 МТ

Ташкентский химико-технологический институт

Электронная почта: suhrobberdiqulovich@gmail.com

Телефон: +998938746104

ORCID:0009-0001-2281-3200

Аннотация: В рамках данной статьи были изучены факторы финансовой безопасности, которые положительно влияют на устойчивость предприятия. По итогам его изучения даны научно-практические рекомендации руководителям предприятий по разработке стратегий, направленных на укрепление финансовой безопасности и повышение экономической стабильности. Это служит повышению экономического потенциала предприятия и обеспечению его долгосрочного успешного развития.

Ключевые слова: Финансовая безопасность, устойчивость предприятия, инфляция, конкуренция, показатели, статистика, актив, обязательство, прибыль, убыток, доход.

FINANCIAL SECURITY AND ITS EFFECT ON ENTERPRISE STABILITY

Baymukhamedova Gulnoza

Tashkent Institute of Chemical Technology

Berdikulov Sukhrob Berdikulovich

Faculty of industrial engineering and management

Student group 23-63 MT

Tashkent Chemical Technological Institute

E-mail: suhrobberdiqulovich@gmail.com

Phone: +998938746104

ORCID:0009-0001-2281-3200

Abstract: Within this article, the factors of financial security that have a positive effect on the stability of the enterprise were studied. As a result of its study, scientific and practical recommendations were given to enterprise leaders in developing strategies aimed at strengthening financial security and increasing economic stability. This serves to increase the economic potential of the enterprise and ensure its long-term successful development.

Keywords: Financial security, stability of the enterprise, inflation, competition, indicators, statistics, asset, liability, profit, loss, income

Kirish. Moliyaviy xavfsizlik — bu korxonaning o'z faoliyatini davom ettirish, iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi. Korxonaning moliyaviy xavfsizligi uning barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Moliyaviy xavfsizlik nafaqat qisqa muddatli foyda olishni, balki uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlash uchun zarur bo'lgan moliyaviy rejalashtirish, risklarni boshqarish va resurslarni oqilona taqsimlashni o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada moliyaviy xavfsizlikning korxona

barqarorligiga ta'siri tahlil qilinadi va uning muhim komponentlari ko'rib chiqiladi. Korxona misolida moliyaviy xavfsizlikning korxona barqarorligida tutgan o'rni va bajaradigan vazifalari tahlil va tadqiqotlar asosida ko'rib chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning daslabki bosqichida moliyaviy xavfsizlik va uning korxona barqarorligiga ta'siri bo'yicha adabiyotlar, monografiyalar hamda, bir nechta ilmiy tadqiqotlardan foydalangan holda tushuncha va ma'lumotlar o'rganildi. Bundan tashqari maqolaning keyingi bosqichlarida SWOT tahlil, statistik tahlil, analiz, sintez kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Moliyaviy xavfsizlik korxonaning barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, chunki u moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, kutilmagan holatlarga tayyor turish va uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlash imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda korxonaning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga turlicha ta'riflar berilgan, biz tadqiqot jarayonida moliyaviy xavfsizlikning korxona barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlarini 1 jadvalda keltiramiz:

1-jadval.

Asosiy jihatlar	Ta'rifi
Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash	Korxonaning moliyaviy xavfsizligi mavjud bo'lsa, u o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishi mumkin. Bu mijozlar, investorlar va kreditorlar oldida ishonchni oshiradi.
Favqulodda holatlarga tayyorgarlik	Moliyaviy xavfsizlik kutilmagan vaziyatlarda (masalan, bozor inqirozi, xaridorlar to'lov qobiliyatining pasayishi yoki tabiiy ofatlar) korxonaning faoliyatini davom ettirishiga yordam beradi.
Raqobatbardoshlikni oshirish	Moliyaviy xavfsiz korxonalar innovatsiyalarni joriy qilish, yangi bozorlarni zabt etish va samaradorlikni oshirish uchun resurslarni yo'naltira oladi.
Uzoq muddatli rivojlanish va investitsiyalar	Moliyaviy xavfsizlik korxonaga o'z faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy qilish va infratuzilmasini yaxshilash uchun uzoq muddatli investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.
Xodimlar va manfaatdor tomonlarga ta'siri	Moliyaviy xavfsizlik xodimlar maoshlarini o'z vaqtida to'lash va ularning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish imkonini beradi.

Risklarni boshqarish	Moliyaviy xavfsizlik risklarni boshqarishni osonlashtiradi, chunki korxona moliyaviy resurslarni taqsimlashda ehtiyotkorlik bilan yondashadi va zararni qoplash uchun yetarli mablag' zaxirasiga ega bo'ladi.
-----------------------------	---

Moliyaviy xavfsizlikning korxona barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlari

Jadvalda ketirilgan moliyaviy xavfsizlikning korxona barqarorligiga ta'sir qiluvchi asosiy jihatlari bugun murakkab tez o'zgaruvchi bozor sharoitlarida ahamiyati kuchayib bormoqda. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'siriga ega bo'lgan yangi omillar ham paydo bo'lmoqda.

Tadqiqot obyekti sifatida respublikadagi ilg'or ishlab chiqaruvchi korxona **“Olmalik kon-metallurgiya kombinati” AJ tanlab olindi va 2015-2023 yillar oralig'ida** kombinatning moliyaviy barqarorligi asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi va 2-jadvalda keltirildi.

2-jadval [1]

Ko'rsatkich	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2023
Sof Foyda (%)	10.2	10.59	2.35	15.46	13.37	16.99	17.41	21.62
Kapitalning rentabelligi (ROE) (%)	8.23	8.54	2.99	18.64	22.26	29.69	30.96	27.53
Aktivlar rentabelligi (ROA) (%)	5.59	5.72	1.3	8.66	11.9	16.71	17.66	12.18
Qarz Nisbat (%)	32.05	33.04	56.45	53.53	46.51	43.71	42,97	55,74
Qarzning kapitalga nisbatan (%)	47.17	49.34	129.63	115.2	86,95	77,66	75.34	125,96 ¹

OKMK (Olmalik kon-metallurgiya kombinati) ning moliyaviy xavfsizligining asosiy ko'rsatkichlari

Olmalik kon-metallurgiya kombinati (OKMK) moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun bir qancha strategik choralarni amalga oshiradi. Kombinatning moliyaviy xavfsizligi va bozor talablariga javob berish qobiliyatini mustahkamlash maqsadida amalga oshiradigan chora va tadbirlarining asosiylarini 3- jadvalda keltiramiz.²

3-jadval.

Yo'nalishlar	Ular ta'sir etuvchi tarmoqlar
---------------------	--------------------------------------

¹ “Olmalik KMK” AJ <https://new.openinfo.uz/>

² Muallif tomonidan yaratildi

Barqaror daromad manbai	OKMK mahsulotlarining (mis, rux, oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar) xalqaro bozor talabiga ega bo'lishi uning barqaror daromad olishini ta'minlaydi. Diversifikatsiya: Kombinat bir vaqtning o'zida bir nechta turdagi metallarni ishlab chiqaradi, bu esa global bozor o'zgarishlaridan himoyalaniish imkonini beradi.
Davlat qo'llab-quvvatlovi	OKMK O'zbekiston hukumatining strategik korxonasi sifatida davlatdan moliyaviy ko'mak va imtiyozlar oladi. Korxona uchun preferensiyalar, jumladan, soliqlar va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar, uning moliyaviy barqarorligiga yordam beradi.
Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. Innovatsion loyihalarga kiritilgan investitsiyalar kelgusida yuqori daromad keltiradi.
Xalqaro moliyaviy hamkorlik	Kombinat xalqaro moliyaviy institutlar va investitsion hamkorlar bilan ishlaydi, bu esa qo'shimcha kapitalni jalb qilish imkonini beradi. Global bozorda barqaror o'rin egallash uchun uzoq muddatli eksport shartnomalari tuziladi.
Risklarni boshqarish	Metall narxlari o'zgarishiga qarshi sug'urta va xedjlash strategiyalari qo'llaniladi. Ekologik xavf: Atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish orqali jarimalar va zararlarning oldi olinadi

OKMK AJ ning moliyaviy xavfsizligini rivojlantirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlar

OKMK AJ yuqoridagi chora-tadbirlarni muntazam ravishda o'z faoliyatida amalga oshiradi. Bu chora- tadbirlar nafaqat korxonaning barqarorligini muvozanatlashtirishi va optimallashtirishiga, balkim davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlarida ishtirok etishiga va sanoat tarnog'ida jahon darajasiga chiqishiga katta hissa qo'shadi.

Yuqoridagi jadvallardan foydalanib, korxonaning moliyaviy xavfsizligi va statistikalari bo'yicha SWOT tahlilini 4-jadvalda keltiramiz.³

4-jadval

Kuchli Tomonlar (Strengths)	Zaif Tomonlar (Weaknesses)	Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Sof foyda o'sishi (21.62%) - 2023 yilda eng yuqori sof foyda, bu	Yuqori qarzning kapitalga nisbati (125.96%) - 2023 yilda qarzning	Rentabellikni oshirish imkoniyatlari - Sof foyda va	Yuqori qarz va moliyaviy xavf - Yuqori qarz kompaniyaning

³ "Olmaliq KMK" AJ <https://new.openinfo.uz/>

kompaniya rentabelligining kuchayganini ko'rsatadi.	kapitalga nisbati yuqori, bu kompaniyaning yuqori qarzga bo'lgan qaramligini ko'rsatadi.	kapital rentabelligini yaxshilash imkoniyatlari mavjud.	moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi, ayniqsa iqtisodiy inqiroz holatida.
Kapitalning rentabelligi (ROE) yuqoriligi (27.53%) - Kompaniya kapitalidan yaxshi foyda olishmoqda.	Qarz nisbatining o'sishi (55.74%) - Kompaniya qarzini oshirgan, bu moliyaviy xavf va barqarorlikni pasaytirishi mumkin.	Bozorni kengaytirish - O'sib borayotgan rentabellik kompaniyaga yangi bozorlarni o'zlashtirish imkonini beradi.	Bozor sharoitining o'zgarishi - Iqtisodiy o'zgarishlar yoki bozor sharoitlaridagi pasayish, kompaniyaning foydalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.
Aktivlar rentabelligi (ROA) yaxshi darajada (12.18%) - Aktivlardan samarali foyda olishmoqda, bu kompaniyaning yaxshi boshqaruvini ko'rsatadi.	Rentabellikning qisqa muddatda o'zgarishi - 2020 yildagi yuqori darajadan keyin 2023 yilga kelib pasayish, uzoq muddatli rentabellik barqarorligi haqidagi savollarni keltirib chiqaradi.	Innovatsiyalar va samaradorlikni oshirish - Korxona rentabelligi va aktivlardan foyda olish darajasini yuqori tutish uchun yangi texnologiyalar va boshqaruv strategiyalarini joriy etish mumkin.	Qarzning oshishi va kompaniya barqarorligiga tahdid - Qarzning yanada oshishi kompaniyaning barqarorlikka bo'lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

OKMK AJ moliyaviy xavfsizligi va iqtisodiy statistikasidan foydalanib tuzilgan SWOT tahlil

Yuqoridagi jadvalda 2-jadvalda berilgan 2015-2023-yillar oralig'idagi ma'lumotlardan foydalanib, shu yillar oralig'ida iqtisodiy o'zgarish darajalarini, ijobiy va salbiy tomonlarini, beradigan imkoniyatlarini va kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan salbiy vaziyatlarni tahlil qildik. Tadqiqot va tahlillarga asoslangan holda, korxonaning moliyaviy holatini, barqarorlik darajasini va korxona moliyaviy xavfsizligiga ta'sir etuvchi ijobiy va salbiy omillarni quyidagi ma'lumotlarda keltirib o'tamiz:

1. Moliyaviy xavfsizlik va barqarorlikni tahlil qilishning asosiy ko'rsatkichlari:

Sof Foyda (%) – 21.62% (2023 yil): Korxona sof foydasining yuqoriligi yaxshi rentabellikni, ya'ni kompaniyaning samarali ishlashini ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, barqaror moliyaviy holatni ta'minlashga yordam beradi.

Kapitalning rentabelligi (ROE) (%) – 27.53% (2023 yil): Yaxshi rentabellik darajasi kompaniyaning kapitalidan samarali foydalanayotganini anglatadi. ROE ko'rsatkichi yuqori bo'lishi, o'z kapitalini qayta tiklashda kompaniyaning muvaffaqiyatli ishlayotganini ko'rsatadi.

Aktivlar rentabelligi (ROA) (%) – 12.18% (2023 yil): Aktivlardan foyda olish samaradorligini o'lchaydi. Ushbu ko'rsatkich, aktivlar samarali ishlatilayotganligini, lekin oxirgi yillarda pasayishini ko'rsatadi. Bu kompaniya faoliyatining barqarorligini ta'minlashda ba'zi muammolar mavjudligini bildiradi.

2. Qarzning moliyaviy xavfsizlikka ta'siri:

Qarz nisbat (%) – 55.74% (2023 yil): Bu yuqori qarz nisbati kompaniya moliyaviy xavfsizligini pasaytiradi. Qarzdorlikning yuqori darajasi kompaniyaning barqarorligiga tahdid soladi, chunki kompaniya katta qarzlarni qaytarishga majbur bo'ladi.

Qarzning kapitalga nisbatan (%) – 125.96% (2023 yil): Kapitalga nisbatan qarzning oshishi kompaniyaning moliyaviy mustahkamligini susaytiradi. Bu ko'rsatkich, kompaniyaning kapitalidan ko'proq qarzga tayanayotganini va ehtimoliy moliyaviy qiyinchiliklarni ko'rsatadi.

Korxonaning 2015-2023-yillar oralig'ida moliyaviy ko'rsatkichlari o'zgarish darajasini quyidagi 5-jadvalda keltiramiz.⁴

5-jadval

Ko'rsatkich	2015 yil	2023 yil	O'zgarish	Moliyaviy Xavfsizlik
Sof Foyda (%)	10.2%	21.62%	+11.42%	Yaxshi rentabellik, barqaror o'sish
Kapitalning rentabelligi (ROE) (%)	8.23%	27.53%	+19.3%	Yuqori rentabellik, barqaror daromad
Aktivlar rentabelligi (ROA) (%)	5.59%	12.18%	+6.59%	Moliyaviy xavf oshgan, yuqori qarz
Qarz Nisbat (%)	32.05 %	55.74%	+23.69%	Moliyaviy xavf oshgan, yuqori qarz

⁴ Muallif tomonidan yaratildi

Qarzning kapitalga nisbatan (%)	47.17 %	125.96 %	+78.79%	Yuqori qarz, xavf tug'diradi
--	---------	----------	---------	------------------------------

Oxirgi 9 yilda korxonaning bir nechta iqtisodiy ko'rsatkichlarida yuzaga kelgan o'zgarishlar

Yuqoridagi ma'lumot, statistika, tahlil va analizlardan kelib chiqib aytish mumkinki, OKMK AJ o'z moliyaviy xavfsizligini oshirish, korxona barqarorligini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun quyidagi islohotlarni amalga oshirishi kerak:

- Qarzlarni boshqarish va kamaytrish orqali iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash
- Rentabellikni oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash
- Moliyaviy investitsiyalar va kapitallarni jalb qilish
- Moliyaviy xavfsizlikning eng muhim qismi bo'lgan risklarni boshqarish
- Tashqi va ichki muhitda bo'layotgan o'zgarishlarga moslashuvchanlikni oshirish

- Moliyaviy hamkorlikni va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovni oshirish

Berilgan yuqoridagi takliflar OKMK AJ da bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, uning moliyaviy xavfsizligi va barqarorligida ijobiy tomonga o'zgarishlar ro'y beradi. Biz bu o'zgarishlarni quyidagi 6-jadvalda keltiramiz.⁵

6-jadval

Ko'rsatkichlar	2023 yil	Kutilayotgan natija
Sof Foyda (%)	21.62%	25-30%
Kapitalning rentabelligi (ROE) (%)	27.53%	30-35%
Aktivlar rentabelligi (ROA) (%)	12.18%	15-18%
Qarzning kapitalga nisbati (%)	125.96%	100% ga pasayishi
Qarz nisbat (%)	55.74%	45-50% gacha qisqarishi

Xulosa va takliflar. Biz bilamizki, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati(OKMK) O'zbekiston hududidagi eng muhim, davlat jamg'armasiga eng ko'p daromad olib keluvchi va jahon miqyosida qazib olish bo'yicha eng katta korxonalardan biridir. O'zbekistonning asosiy yer osti boyliklarini qazib olish faoliyati shu korxona tomonidan amalga oshirilishini hammamiz yaxshi bilamiz. Shunga ko'ra, yuqoridagi tadqiqot va metodlardan foydalangan holda aytish mumkinki, korxonaning moliyaviy xavfsizligini rivojlantirish va uning barqarorligini oshirish uchun maqola so'nggida yozilgan takliflarni qo'llasak, korxona faoliyatining rivojlanishi uchun ham, davlatimiz daromadining rivojlanishi uchun ham katta ishlar amalga oshirgan bo'lamiz.

⁵ Muallif tomonidan yaratildi

OKMK (Olmalik Kon-Metallurgiya Kombinati) uchun moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash va barqarorligini oshirish maqsadida bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Korxona uchun optimal moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

1. Qarzni boshqarish va kamaytirish

Qarzni qisqartirish: Kompaniya o'z qarzlarini bosqichma-bosqich qisqartirishga intilishi kerak. Buning uchun, qarzlarning qaytarilishini rejalashtirgan holda, ortiqcha xarajatlar va investitsiyalarni kamaytirish zarur.

Qarzning tuzilishini optimallashtirish: Qarzni qaytarish muddati, foiz stavkalari va shartlarini qayta ko'rib chiqish, qisqa muddatli qarzlardan uzoq muddatli qarzlariga o'tish orqali moliyaviy xavfni kamaytiradi..

Moliyaviy rezervlarni shakllantirish: Moliyaviy xavflardan himoyalaniish uchun kompaniya qisqa muddatli likvidlikni oshirish va rezerv fondlarini shakllantirish zarur.

2. Rentabellikni oshirish va samaradorlikni yaxshilash

Samarali aktivlar boshqaruvi: Kompaniya faoliyatini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash orqali aktivlarning rentabelligini oshirish zarur. Masalan, mavjud uskunalar va texnologiyalarni yangilash, energiya sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali resurslar samaradorligini oshiradi.

Investitsiyalarni yaxshilash: Strategik investitsiyalarni tahlil qilish va foydalilikni oshirish uchun texnologik yangilanishlar va yangi loyihalarni amalga oshirish.

Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish: Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va chiqindilarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish tizimini yaxshilash zarur. Bu nafaqat rentabellikni oshiradi, balki xarajatlarni ham kamaytiradi.

3. Dastlabki kapitalni ko'paytirish

Investorlarga jalb qilish: Kompaniya yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun ishonchli va jozibali moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishi kerak. Bozordagi ishonchni oshirish va investorlar uchun maqbul shartlar taqdim etish orqali kapitalni ko'paytiradi.

O'zgaruvchan dividend siyosati: Kompaniya dividendlarni o'zgaruvchan qilishi va daromadlarni korxonaning rivojlanishiga yo'naltirish orqali kapitalni yanada kuchaytiradi.

4. Kompaniya uchun risklarni boshqarish

Risklarni tahlil qilish: Kompaniya bozor, texnologiya, tashqi iqtisodiy o'zgarishlar va operatsion xatarlardan kelib chiqadigan xavflarni muntazam ravishda tahlil qilishi kerak.

Diversifikatsiya strategiyalari: Kompaniya faqatgina metallurgiya sohasiga qaram bo'lmasdan, yangi bozorlar va mahsulotlarga diversifikatsiya qilishi kerak. Bu ishlab chiqarishni yanada barqaror qilishga yordam beradi.

5. Iqtisodiy inqirozlar va bozor o'zgarishlariga moslashuvchanlik

Tezkor boshqaruv tizimi: Kompaniya tezkor qarorlar qabul qilish va o'zgarishlarga moslashish uchun boshqaruv tizimini takomillashtirishi kerak. Tezkor qarorlar bozor o'zgarishlariga tezda javob berish imkonini yaratadi.

Moliyaviy rejalashtirish: Iqtisodiy inqirozlar va bozor o'zgarishlarini hisobga olgan holda, kompaniya uzoq muddatli moliyaviy strategiyalar ishlab chiqishi va o'zgarishlarga tayyor bo'lishi kerak.

6. Tashqi moliyaviy shartlar bilan hamkorlikni rivojlantirish

Xalqaro hamkorlik: Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va global bozorga chiqish kompaniyaga yangi daromad manbalarini yaratishga yordam beradi.

Davlat moliyaviy qo'llab-quvvatlovi: O'zbekiston hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi siyosatlar mavjud, ulardan foydalanish kompaniyaning moliyaviy xavfsizligini oshiradi.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Tohirov, A. (2024). SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI EKONOMETRIK MODELASH. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari Aktualnye muammolari ijtimoiy-gumanitarnykh nauk Gumanitar va ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolari.*, 4 (3). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I3Y2024N08>
2. Хайдарова, К. ., & Ахмедова, Х. (2022). ДИВЕРСИФИКАЦИЯ КАК СТРАТЕГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ . *Евразийский журнал академических исследований*, 2(13), 1259–1261. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7930>
3. Хайдарова, Камола Ахинжановна. "ХИМИЧЕСКАЯ ПРОМЫШЛЕННОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ПРОБЛЕМЫ СДЕРЖИВАЮЩИЕ РАЗВИТИЯ ДАННОЙ ОТРАСЛИ." *Интернаука* 6-2 (2017): 5-6.
4. Quvvatov, G. (2023). MOLIYAVIY RESURSLARNING TAHLILI VA UNING KORXONA ISTIQBOLIDAGI ROLI. *Iqtisodiyot Va ta'lim*, 24(5), 240–247. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/%x
5. Fazliddinova, Z. (2024). HUDUDLARDAGI KORXONALAR FAOLIYATINING MOLIYAVIY TAHLILI . *Nashrlar*, 3(M), 10–14. <https://doi.org/10.60078/2024-vol3-issM-pp10-14>
6. Abdullayeva, M. (2024). MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNING XALQARO STANDARTLARI. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(5), 12–18. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss5-pp12-18>

7. Bayboboneva Firuza Nabijonovna. (2023). IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TAHDIDLAR TAHLILI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7(7), 51–54. <https://doi.org/10.54613/ku.v7i7.779>
8. Toxirov, A. (2024). KORXONALARNING RAQOBATBARDOSHLIGI VA IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOZOR SHAROITIDA TA'MINLASH YO'LLARI. *Ilg'or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar*, 1(2), 188–194. <https://doi.org/10.60078/3060-4842-2024-vol1-iss2-pp188-194>
9. “Olmaliq KMK” AJ <https://new.openinfo.uz/>